



## QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING MAZMUNI VA MOHIYATI

**Uzakova Umida Ruzievna**

Toshkent davlat transport universiteti

ORCID: 0009-0002-6173-5572

**Annotatsiya.** Ilmiy maqolada qurilish materiallari sanoati korxonalarini rivojlantirish mexanizmining mazmuni va mohiyati ko'rsatib berilgan. Jumladan, elementlarini integratsiyasini ta'minlash tashkiliy tuzilmalarda va korxonalar raqobatbardoshligini ko'tarish; samarali ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida o'z-o'zini boshqarish va elementlar o'rtasidagi o'zaro aloqani ta'minlash; innovatsion mavqalchilik asosida ishlab chiqarish omillarini doimiy kombinatsiyasini yaratish uchun barqaror turtki berish; korxonalar ichki va tashqi muhitini barqarorligini oshirish, shuningdek, korxonalar liberalligi va samarali rivojlanishini ta'minlash asoslangan.

**Kalit so'zlar:** ishlab chiqarish, korxonalar mahsuloti, iqtisodiy samaradorlik, boshqaruv samaradorligi, qurilish materiallari, tashkiliy mexanizm, iqtisodiy mexanizm, xarajat, narx, sanoat, rentabellik, boshqaruv elementlari.

## СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ОТРАСЛИ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ

**Узакова Умида Рузиевна**

Ташкентский государственный транспортный университет

**Аннотация.** В научной статье показано содержание и сущность механизма развития предприятий отрасли строительных материалов. В частности, обеспечение интеграции элементов организационных структур и повышение конкурентоспособности предприятия; обеспечение саморегулирования и взаимодействия элементов с целью организации эффективного производства; обеспечение устойчивого толчка к созданию постоянного сочетания факторов производства на основе инновационного риска; на основе повышения устойчивости внутренней и внешней среды предприятия, а также обеспечения либерализма и эффективного развития предприятий.

**Ключевые слова:** производство, продукт предприятия, экономическая эффективность, эффективность управления, строительные материалы, организационный механизм, экономический механизм, стоимость, цена, отрасль, рентабельность, элементы управления.

## THE CONTENT AND ESSENCE OF THE MECHANISM OF DEVELOPMENT OF ENTERPRISES IN THE CONSTRUCTION MATERIALS INDUSTRY

**Uzakova Umida Ruzievna**

*Tashkent State Transport University*

**Annotation.** *The scientific article shows the content and essence of the mechanism of development of enterprises in the construction materials industry. In particular, ensuring the integration of elements of organizational structures and increasing the competitiveness of the enterprise; ensuring self-regulation and interaction of elements in order to organize efficient production; ensuring a steady push to create a permanent combination of production factors based on innovative risk; based on increasing the sustainability of the internal and external environment of the enterprise, as well as ensuring liberalism and effective development of enterprises.*

**Keywords:** *production, enterprise product, economic efficiency, management efficiency, building materials, organizational mechanism, economic mechanism, cost, price, industry, profitability, controls.*

### **Kirish.**

O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda qurilish ishlari ko'lami sezilarli darajada oshdi. Bularning barchasini real vaqt rejimida hamma joyda kuzatyapmiz: turar-joy majmualari va magistral yo'llar, sanoat gigantlari va ijtimoiy obyektlar – hamma yerda ishlar qizg'in davom etmoqda, O'zbekistonni ko'z o'ngimizda yanada zamonaviy va rivojlangan davlatga aylantirmoqda. Qurilish-mamlakat iqtisodiyotining alohida mustaqil tarmog'i bo'lib, u yangilarini ishga tushirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarish va noishlab chiqarish obyektlarini rekonstruksiya qilish, kengaytirish, ta'mirlash va texnik qayta jihozlash uchun mo'ljallangandir. Qurilish o'zida har qanday davlat iqtisodiyotining holati va rivojlanish darajasini bevosita aks ettiradi. Ushbu soha madaniyat va millatning iqtisodiy o'sishga intilishini tavsiflaydi. Qurilish sanoatining xal qiluvchi roli mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratishdan iborat. Tabiiyki, katta hajmdagi qurilish ishlari nafaqat katta hajmdagi uskunalari va mutaxassislarni talab qiladi. Qurilish materiallari sohaning asosiy bo'g'inidir. Shu bois mamlakatimizda yangi turdagi sifatli, zamonaviy, energiya tejankor qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilib, marketing tadqiqotlari amalga oshirilmoqda. Ayni paytda mamlakatimiz iqtisodiy salohiyati yuksalishi bilan qurilish materiallariga katta e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy qurilish ilmiy-texnika bazasining yuqori darajada rivojlanishi bilan tavsiflanadi, bu esa yangi samarali qurilish materiallarini o'zlashtirishning jadal o'sishini ta'minlaydi. Bu mehnat sharoitlarini sezilarli darajada osonlashtiradi va yaxshilaydi, uning xarajatlarini kamaytiradi va mahsulot tannarxini kamaytiradi. Assortiment qanchalik keng bo'lsa, qurilish materiallarining sifati yuqori va narxi qanchalik past bo'lsa, qurilish shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi. Qurilish muvaffaqiyatli va samarali bo'lishi uchun avvalo mamlakatda qurilish materiallari bozorini rivojlantirish talab etiladi.

So'nggi yillarda mamlakatimiz sanoat salohiyatini mustahkamlash va hududlarni kompleks rivojlantirish, shahar va viloyatlarda yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish hisobiga aholini ish bilan band qilishni kengaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar qabul qilindi va amalga oshirildi. Natijada, so'nggi to'rt yil ichida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 23 foizga, shu jumladan elektrotexnika, to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farmasevtika, zargarlik sanoati, qurilish materiallari, mebel, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqa iste'mol mollari ishlab chiqarish singari sanoatning hududlarda jadal rivojlanayotgan tarmoqlari 1,3 barobardan ko'proq o'sdi. Shu bilan birga, hududlarda mavjud sanoat salohiyatidan, ayniqsa, qurilish industriyasini rivojlantirishda noruda minerallarning xom

ashyo bazasini o'zlashtirish imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapti. Xususan, keramzit, silikat qumi, shisha xom ashyosi, qurilish va qoplama toshlarga ega o'rganilgan konlarning yarmidan ko'pi o'zlashtirilmay qolmoqda. Natijada, sanitariya-texnik vositalar bo'yicha mahalliy ishlab chiqarish ichki bozorining faqatgina 40 foizini, gazbeton bloklar - 51 foizini, lok-bo'yoq mahsulotlari - 65 foizini, qurilish oynalari - 70 foizini, devor gulqog'ozlari - 30 foizini tashkil etmoqda (Фармон, 2021).

Jahonda aholi sonining ortishi bilan bog'liq holda birlamchi zaruriy ehtiyojlar tarkibidagi aholining yashash ehtiyojlarini qondiruvchi qurilish sohasi mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi natijasida yetarli ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma hamda iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan mamlakatlarda qurilish materiallari sohasi iqtisodiyotning ta'minlovchi sohalaridan biriga aylanib bormoqda.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida qurilish materiallari sanoati bandlikning muhim manbai hisoblanadi. «U global bandlikning 7,6 foizini ta'minlaydi, ya'ni taxminan 230 million kishi tarmoqda» (ILOSTAT, 2019). Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida kichik va yirik korxonalar alohida ahamiyat kasb etib, jahondagi korxonalarining katta qismini tashkil qilgan holda global iqtisodiyot va bandlikni ta'minlashda yuqori ulushga ega bo'lmoqda. Jumladan, «butun dunyo bo'ylab korxonalarining 90 foizga yaqini va ish bilan bandlarning 50 foizdan ortig'i kichik va yirik biznes ulushiga to'g'ri keladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda milliy daromadning 40 foizini tashkil qiladi. Qurilish materiallari sohasida kichik korxonalar salohiyati katta bo'lib, biznesni rivojlanishiga qulay sharoit yaratadi va daromadlarni taqsimlashda muhim rol o'ynaydi»<sup>115</sup>. Qurilishga bo'lgan talabning o'zgarishiga qarab pudratchilar ish muhitiga bo'lgan xavf darajasi hamda o'zgarib borishi mazkur tarmoqni yanada takomillashtirishni talab etmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yangi texnik va tashkiliy-texnologik yechimlarning ishlab chiqilishi, ularni qo'llash bo'yicha qarorlarning qabul qilinishi, yirik qurilish materiallari korxonalar innovasion rivojlanishi asosiy tamoyillarining takomillashtirilishi takror ishlab chiqarish jarayonlarini yangilash hamda iqtisodiy o'sish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratdi. Qurilish materiallarini ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, ya'ni materiallar ishlab chiqarishni hozirgi zamonaviy qurilish texnologiyalar bilan jihozlash, ularni ma'naviy, jismoniy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologikparkni qayta tuzish kabi amaliy ishlarni amalga oshirish jarayonning samaradorligiga qurilish materiallari sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishi ham ijobiy ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 maydagi PQ- 4335 sonli "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida "...qurilish materiallari sanoatiga innovatsiyalarni joriy qilish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar va texnologik jarayonlarni har tomonlama o'rganish; yuqori tijorat salohiyatiga ega va ro'yobga chiqarishga tayyor bo'lgan istiqbolli startap-loyihalarni tanlash hamda har tomonlama qo'llab-quvvatlash; mamlakatimizning ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarining ilmiy va innovatsion salohiyatidan keng foydalanish orqali yangi turdagi yuqori samarador qurilish materiallarini yaratishga qaratilgan maqsadli dasturlarni shakllantirish" deb ta'kidlaydi (Qaror, 2019).

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan strategik iqtisodiy islohotlarning yo'nalishlaridan biri iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada sifat ko'rsatkichlarini ta'minlash qurilish materiallari sanoat korxonalarini tubdan isloh qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, qurilish materiallarini ishlab chiqarishga innovasion texnologiyalarni joriy etish hisoblanadi. Zero, mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi sanoat tarmoqlarini jadal rivojlanishi va sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligiga bevosita bog'liq. Ayniqsa, O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga jadal integratsiyalashib borishi, davom etayotgan jahon iqtisodiyotidagi inqiroz va jahon bozorida beqaror konyunktura sharoitida korxonalar iqtisodiy barqarorligini

<sup>115</sup> <https://www.worldbank.org/en/topic/sme/finance>

ta'minlash va oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish ahamiyati va dolzarbligi yanada oshib bormoqda.

### Adabiyotlar sharhi.

Sanoat korxonalarini rivojlantirishda ijtimoiy, tashkiliy hamda iqtisodiy mexanizmlari tushunchasi bo'yicha bir qator tadqiqotchi olimlar o'z nuqtai-nazarlarini turlicha ta'riflar orqali ifodalaganlar. Bugungi kunda xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmi iborasi tashkiliy-iqtisodiy so'zlari bilan birga boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari shaklida qo'llanilmokda.

Mahalliy olimlarimizdan Ibragimov (2019) o'z tadqiqot ishida «Tashkiliy-iqtisodiy boshqarish mexanizmi - o'zaro bir-biri bilan bog'langan elementlar majmui bo'lib, bu elementlar ijtimoiy, tashkiliy, iqtisodiy, ba'zida texnologik jihatdan quyi darajadagi kichik tizimchalarning o'zaro bog'lanishi», deb ta'rif bergan.

«Qurilish materiallari bozori» tushunchasi Rossiyalik olim Jukov (2005) fikriga ko'ra «...qurilish materiallari bozorini qurilish materiallari sanoati korxonalarini (qurilish xom ashyosi, mahsulotlari va tuzilmalari) yakuniy mahsulotlarining aylanish sohasi bo'lib, ular doirasida tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarning uch turi shakllanadi: ishlab chiqarish subyektlari o'rtasidagi raqobat munosabatlari; vositachilar va mijozlar o'rtasidagi munosabatlar» dan shakllanadi. Bundan tashqari Rafael (2010) tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan: «Qurilish materiallari bozori - bu tovarlarni ishlab chiqarish va sotish uchun maxsus sharoitlar, ishtirokchilarning o'ziga xos manfaatlari, individual infratuzilma bilan tavsiflangan munosabatlar tizimi bo'lib, uning doirasida ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar, vositachilar, atrofdagi bozor muhiti vakillarining manfaatlari qurilish materiallari va mahsulotlarini sotib olish va sotish bo'yicha, barcha manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan shakllangan moddiy, moliyaviy va axborot oqimlari muvofiqlashtiriladi».

Tizim sifatida qurilish materiallari bozori ma'lum tuzilishga ega bo'lgan va tashqi muhit bilan o'zaro aloqada bo'lgan subyektlar va obyektlarning o'zaro bog'liq elementlarining yaxlit majmuasidir. Qurilish materiallari bozori subyektlari o'rtasidagi munosabatlar va munosabatlarning xarakterini belgilovchi bozorning xarakterli belgilari sifatida tushuniladigan tuzilma - qurilish materiallari bozorining asosiy xususiyatlaridan biridir. Bu xususiyatlarga quyidagilar kiradi: ishlab chiqaruvchi tashkilotlarning soni va hajmi, turli tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan qurilish xom ashyosi, materiallari, mahsulotlari va konstruksiyalari o'rtasidagi o'xshashlik yoki farq darajasi, muayyan bozorga kirish va undan chiqish qulayligi, bozor ma'lumotlarining mavjudligi, mahalliy tabiiy resurslardan foydalanish, qurilish materiallari sanoatining mahalliy korxonalarini uchun ichki bozor marketingining ustuvorligi.

Respublikamizda aksariyat bino va inshootlar ko'p energiya talab qiladigan, tannarxi qimmatga tushayotgan qurilish konstruksiyalari va materiallaridan qurilayotganligi hech kimga sir emas. Ammo xorijiy davlatlarda pishirilmay olinadigan devorbop g'isht va bloklar ishlab chiqarish texnologiyalari yaratilgan. Bunday devorbop qurilish mahsulotlari oddiy tuproqdan yoki shlakdan iborat ekanligi, xohlagan mustahkamlikdagi ( $10-1500 \text{ kg/sm}^3$ ) g'isht yoki bloklarni yurtimizning iqlimiga moslashtirib ishlab chiqarishni xorij mutaxassislari taklif etmoqdalar (Kasimov, 2017).

Xalq xo'jaligida qurilish majmuasi alohida o'rin tutadi, uning yakuniy mahsuloti foydalanishga tayyor asosiy fondlardir. U o'zaro bog'langan tarmoqlar va kichik tarmoqlar tizimidan iborat. Qurilish majmuasining rivojlanishi kapital qo'yilmalar miqdori va qurilish-montaj ishlarining hajmiga bog'liq. O'z navbatida, qurilish-montaj ishlarining hajmi to'g'ridan-to'g'ri qurilish materiallari va inshootlarini iste'mol qilish bilan bog'liqdir (Солдатенко, Шаталова, 2009).

Qurilish majmuasining holati, vazifalari va iqtisodiy samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar to'g'risidagi tushunchalarni qayta ko'rib chiqish va ustun g'oyalarni o'zgartirish maqsadga muvofiqdir (Morozova, 2013).

Iqtisodiy adabiyotlarda tashkiliy-iqtisodiy tushunchalarga turli yondashuvlar mavjud. Masalan, A.P.Gradov milliy iqtisodiyotni tizim sifatida belgilab, unga o'zaro ta'sir etadigan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm bilan bog'liq, ishlab chiqarish va iste'molchi o'rtasida tenglikni ta'minlaydi deb uqtirib o'tadi (Градов, 2005).

B.N.Rayzberg tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni tashkiliy tuzilmalar, boshqaruv shakllari, usullari yig'indisi bilan ifodalab, boshqaruv tizimi va boshqaruv mexanizmi bir ma'noni anglatmaydi, - deb ta'kidlaydi (Райзберг, Туляков, 2016).

Bizning fikrimizcha, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm tarmoq yoki korxonani boshqarishdagi asosiy element bo'lib, umuman olganda u xo'jalik mexanizmining samaradorligini oshirishning asosiy manbaidir.

Tashkiliy mexanizm ichki va tashki muhit omillari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish usullari majmui bo'lib, ishlab chiqarish jarayonidagi muayyan vazifalarni o'z ichiga oladi. Ushbu mexanizm ishlab chiqarish funksiyalari, tashkiliy tuzilma, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish, mehnatni ilmiy tashkil etish, barcha xodimlarning vakolatlari, majburiyatlari va javobgarligini qamrab oladigan boshqaruv shakllarining ajralmas qismidir.

Iqtisodiy mexanizm bu yuzaga keladigan har xil iqtisodiy jarayonlar, hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlar asosida barkaror rivojlanishning o'zaro bog'liqlik tizimida amalga oshiradi. Yuqoridagi fikrlarni aniqroq erishish sifatida shuni aytish mumkinki, iqtisodiy mexanizm asosan mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan o'zaro bog'lik bo'lgan omillardan tortib intizom, me'yoriy hujjatlar, qoidalar qabilardan yuzaga kelgan bo'lsa, samaradorlik, iqtisodiy mexanizm foyda, narx, soliq, rentabellik va sug'urta kabi omillar yordamida shakllanadi.

Tashkiliy mexanizm – qurilish iateriallari sanoat korxonalarida mehnat unimdorligini oshirish omili sifatida asosan mehnat resurslari hamda ulardan unimdor foydalanish natijasida ishchi-xodimlarning sifat va miqdor ko'rsatkichlarining o'zaro bog'likligi hamda ulardan unimli foydalanish bilan bog'liq.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni vazifalari qo'yi ko'rsatilanlardan iborat: elementlarini integrasiyasini ta'minlash tashkiliy tuzilmalarda va korxonalar raqobatbardoshligini ko'tarish; samarali ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida o'z-o'zini boshqarish va elementlar o'rtasidagi o'zaro aloqani ta'minlash; innovation tavakkalchilik asosida ishlab chiqarish omillarini doimiy kombinasiyasini yaratish uchun barqaror turtki berish; korxonalar ichki va tashqi muhitini barqarorligini oshirish, shuningdek, korxonalar liberalligi va samarali rivojlanishini ta'minlash hisoblanadi.

Korxonalar rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi bir qancha guruhlar munosabatlarini o'z ichiga olgan murakkab integral tizimdan iborat. Uning asosiy funksiyasi tadbirkorlik qobiliyatini ruyobga chiqarish va boshqaruv bug'inlarining o'zaro ta'sirini muvofiklashtirishdan iborat. Demak, boshqaruv samaradorligini oshirishda boshqaruv bo'g'inlari o'rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirish, innovation usullar asosida ishlab chiqarish jarayonlarini raqobatbardoshligiga erishish zarur. Shunday qilib, qurilish materiallari sanoati korxonalarini texnik-iqtisodiy mexanizm bilan ta'minlash - bu korxonalarni iqtisodiy barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi usullar va tamoyillar pradigmasidir.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini asosiy maqsadi xarajatlarni optimallashtirish orqali samaradorlikni hamdaraqobatbardoshlikni oshirishdan iborat. Raqobatbardoshlikni oshirishda mahsulotning narxi, sifati, servis xizmati va boshqa omillar ta'siri kuchli bo'ladi. Bugungi kunda korxonalarining raqobatbardoshligini belgilovchi mezonlardan eng asosiysi mahsulot sifati hisoblanadi.

Umumiy holda tashkiliy-iqtisodiy mexanizm korxonani iqtisodiy samaradorligini ta'minlashga, raqobatbardoshlikka erishishga, bozorda ustun mavqeyga ega bo'lishga xizmat kilishi zarur.



### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Maqolada qurilish materiallari sanoatida korxonalarni rivojlantirish mexanizmini shakllantirish qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Qurilish materiallari sanoatining taraqqiyotini ta'minlash uchun o'z navbatida kichik va yirik biznes subyektlarining mutanosib nisbati va ular orasidagi integrasion aloqalarni rivojlantirish lozim bo'ladi. Ya'ni ular orasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yishning tashkiliy-huquqiy shakllarini takomillashtirish, huquqiy bazasini ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratilishi kerak. Bugungi kunda qurilish sohasida kichik biznes subyektlarini rivojlantirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar yetishmasligi, xalqaro me'yorlar asosida mavjud qonunlar asosida takomillashtirishni talab qiladi, qurilish sohasidagi kichik biznes subyektlarining texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash masalalarida imkoniyatlarning cheklanganligi va qator kamchiliklarning mavjudligi, sohada faoliyat olib boruvchi yirik biznes subyektlarini miqdor jihatdan kamligi, kichik va yirik qurilish korxonalarida integrasion aloqalarni samarali tashkil etish masalalari to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, huquqiy savodxonlik darajasining pastligi, nazorat qiluvchi tashkilotlar bunga o'rnatilgan to'siqlar tomonidan misollar bo'la oladi. Natijada ko'pchilik holatlarda aynan qurilish sohasida korrupsion holatlarni uchrashi, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil qilish jarayoni bilan bog'liq muammolar, qurilish ishlarini amalga oshirishda norasmiy sektorning ulushini kattaligicha qolishi holatlari ko'p uchrab turadi.


Qurilish materiallari sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni samarali tashkil etish bo'yicha quyidagi tadbirlarni olib borish taklif etiladi:

- korxonadagi bo'limlar faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirishda bir- biriga bog'lik tizimlar shaklida shakllantirish va o'zaro xarakatni ta'minlovchi mexanizmni tashkil etish zarur;
- mahsulot sifatini oshirishga ta'sir etuvchi xalqaro sifat menejmentini joriy etish lozim;
- korxonalarda muntazam SWOT, PEST kabi tahlil usullaridan foydalangan holda tahdidlar, risklarni tadqiq etish zarur;
- axborot oqimini samarali tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish kerak;
- investorlar bilan samarali bitimlar tuzish, investisiya kiritish hamda innovasion faoliyatni rivojlantirish lozim;
- xodimlar mehnat salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi malaka oshirish, stajirovkaga yuborish tadbirlarini takomillashtirish zarur;
- qurilish materiallari assortimentlari ustida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish orqali diversifikasiyalashuv jarayoniga erishish lozim;
- korxonalar doimiy ravishda boshqaruv samaradorligini aniqlashi, yo'l qo'yilayotgan kamchilik va muammolar bo'yicha operativ qarorlar qabul qilishi zarur.

Metodologik nuqtai-nazardan boshqaruv mexanizmini konseptual modelini ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shundan kelib chiqqan holda ishimizda boshqaruv mexanizmining konseptual modelini yaratishga harakat qildik (1-rasm).

Boshqaruv mexanizm modelining konseptual asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- boshqaruv mexanizmining mohiyatini kengroq tushunish va uning samaradorligini ta'minlash uchun uni bozor mexanizmi bilan bog'lab tadqiq qilish lozim. Bozor mexanizmi - bu bozor tizimiga xos bo'lgan bir-birini taqazo etuvchi va birgalikda amal qiluvchi iqtisodiy vositalardir. Bular jumlasiga talab, taklif, tovar narxlari, bozor segmenti va konyunkturasi, pul, foyda, risk, foiz, iqtisodiy majburiyat, raqobat kabilar kiradi.




1-rasm. Boshqaruv mexanizmining konseptual modeli (O'lmasov, Vaxabov, 2006)

- Boshqaruv mexanizmini shakllantirish va takomillashtirishda bozor mexanizmini ham e'tiborga olish zarur. Demak, bozor mexanizmi serqirra tushuncha bo'lib, uning elementlaridan boshqaruv mexanizmida foydalanish ijobiy samara beradi. Shu bilan birga bozor mexanizmi va boshqaruv mexanizmi o'rtasida bog'liqlik borligini ta'kidlash lozim.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholi faravonligini oshirish va yashash sharoitlarini yaxshilash, xususan, aholini bugungi zamon talablari darajasidagi va arzon uy-joy bilan ta'minlash, uy-joy bozoridagi keskinlikni yumshatish, mamlakat hududlarida infratuzilmani rivojlantirish, shaharsozlik normalari va qoidalarini yangi bosqichga olib chiqish kabilar o'z yechimini kutayotgan masalalar hisoblanadi. Buning uchun qurilish ishlari sifatini jahon talablari darajasiga chiqarish, mamlakatda qurilish industriyasini rivojlantirish asosida qurilish sohasi taraqqiyotini ta'minlash talab qilinadi.

Qurilish materiallari sohasida yirik va kichik biznes subyektlarini aloqalarini integrasion shakllantirish, aynan sohada ilk tashkil topgan kichik biznes subyektlarini bozorga kirib kelishi va raqobatda qolishiga sharoit yaratib beradi. Amaliyotda yirik korxonalarni kichik biznes subyektlari o'rtasida o'zaro hamkorligini tashkil qilishning qator samarali yo'nalishlari mavjud. Odatda kichik biznes subyektlari asta sekinlik bilan yirik korxonalar bilan hamkorlik munosabatlarni tashkil qilgan holda ularning ta'sir doirasiga kirib borishadi va ular faoliyatida muhim o'ziga xos bo'lgan subyekt sifatida shakllanishadi. Bunda tadbirkorlik subyektni boshqaruv apparatida faoliyat yurituvchi kadrlarning malakasi muhim sanaladi.



2-rasm. Qurilish materiallari sanoati korxonalarini boshqarish mexanizmining asosiy elementlari

Yuqorida aytib o'tilganidek, barcha iqtisodiy jarayonlar boshqaruv mexanizmini tartibga keltirish asosida amalga oshiriladi. Shunday ekan, boshqaruv mexanizmi - bu keng ma'noda bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lib, ularning umumiylikini saqlagan holda boshqaruv ob'ektida amalga oshirilayotgan jarayonlarning samaradorligini belgilaydi. Boshqaruv mexanizmining umumiy ko'rinishini quyidagi 2-rasmda ko'rish mumkin.

Aytib o'tish joizki, boshqaruv pog'onasi oshib borgan sari boshqaruv mexanizmi elementlari soni ham ortib boradi. Chunki boshqaruvning har bir pog'onasi o'ziga xos xususiyatga ega. Masalan, milliy iqtisodiyot, tarmoq iqtisodiyoti, turli shakldagi korxonalar iqtisodiyoti va boshqalar.

Boshqaruv mexanizmining ajralmas qismi bo'lib uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi hisoblanadi. Chunki ushbu mexanizmni yaxshi tartibga keltirish natijasida korxonaning faoliyati yuqori darajada bo'ladi, ishlab chiqarish xarajatlardan samarali foydalaniladi va daromad oshib boradi.

Mamlakatimizda qurilish sohasida yirik korxonalarni kichik biznes subyektlari o'rtasida o'zaro hamkorligini amalgam oshirish, kichik biznes subyektlarni davlatimiz bozorga tez suratlarda kirib kelishi, yirik korxonalar xamkorligida texnologiyalaridan foydalanishi, mamlakatimizning yirik shaharlarida o'rta va kichik biznesning integrasion rivojlantirish sabab-oqibatlarini, birgalikdagi faoliyati natijasida birinchidan sinergetik samarani ko'tarishga strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beruvchishni taqozo etganligi holda, xozirgi kunda, rivojlangan davlatlarda qurilish sohasida yirik va kichik biznes o'zaro hamkorlik asosiy shakllaridan biridir - "subpudratchilik jarayo"ni tashkillashtirishni obyektiv zarurat bo'lib qolmoqda. So'ngi yillarda davlatimiz tomonidan aynan qurilish sohasida hamkorlikni pudratchilik shaklini rivojlantirishga oid qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilish maqsadga muvofiq bo'lib, ular qurilish sohasini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

"Ko'plab xorijiy qurilish korxonalari konstruktiv jarayonlar samaradorligini oshirishga harakat qilgani holda raqobat strategiyasini aniqlash orqali korxonalar tuzilmasini qayta tashkil qilish masalasiga e'tibor qaratishgan" (Souza and Formoso (1993)). Bu kabi korxonalar tomonidan qabul qilingan strategiyalardan biri bu subpudratchilik bo'lib, bu orqali qurilish jarayonini davomiylikini qisqartirgan holda ma'lum bir qismini kamaytirish mumkin, bunda ishning katta qismi uchunchi shaxslarga beriladi.

Yuqorida keltirilganlarga ko'ra, mamlakatimiz qurilish sohasida subpudratchilik asosida qurilish ishlarini tashkil qilish mexanizmlari quyidagicha bo'lishi mumkin: qurilish materiallari sanoati korxonalarining har xil xizmat ko'rsatuvchilar va ta'minotchilar o'rtasida aloqalarini integrasion o'rnatish; jarayonlar asosida texnologiya kiritilgan, qurilish materiallari sanoati ishlari asosan va yordamchi xizmatlarini amalga oshirish, o'ziga xos subpudratchilik ishlari bilan faoliyat olib boruvchi kichik korxonalarni tuzish; qurilish ishlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan tovarlar va qurilish materiallari kiritilgan sanoat mahsulotlarni bo'yicha ishlab chiqish kichik subpudratchi korxonalarni tashkil qilish; qurilish korxonalarini zaruriy malaka va tajribaga ega bo'lgan noyob ishchi kuchi bilan ta'minlashga xizmat qiladigan onlayn tizimni shakllantirish va ular orasidagi integrasiyani yo'lga qo'yish.

Yirik qurilish materiallari korxonalar va subpudratchilikka mo'ljallangan kichik qurilish materiallari korxonalar (xoxlogan kichik biznes subyekti bo'lishi mumkin) integrasiyalashuvining asosiy muammolaridan biri ular hamkorligining barqarorligi, integrasiya "hayotiy sikli"ning davriyligi bilan bog'liq bo'ladi. Ya'ni kichik va yirik korxonalar integrasiyalashuvi asosida mablag'larini belgilanganini sheriklikka sarflaganlaridan keyin, ular kutilgan foyda normasiga ega bo'lmasliklari mumkin, ya'ni shartnomada belgilangan talablarni u yoki bu sherik tomonidan to'liq yoki qisman shartnomani bajarmasligi barbod bo'lishiga keltirib chiqaradi. Shundan kelib chiqib, bu kabi salbiy natijalarni kelib chiqmasligi uchun, korxonalar bunday integrasiyalashuvni o'zlariga foydali ekanligiga ishonch hosil qilishlari lozim bo'ladi.



Qurilish sohasidagi yirik korxonalar va subpudratchilar hamkorligi barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi bajarilishi lozim bo'lgan ayrim shart-sharoitarni qarab chiqqan holda nazariy asosi sifatida ushbu masalani yechishning klassik integrasion hamkorliklarning matematik usullardan foydalanamiz.

Mazkur vositalardan foydalanish uchun subpudratchilik shartnomasida qatnashadigan qurilish, qurilish materiallari korxonalar va o'zlari joylashgan hududda respublikaning o'ziga xos xususiyatlar va imkoniyatlarini inobatga olgan holda qurilish ishlari va qurilish materiallari bozorida vaziyatdan kelib chiqib, bir xil qurilish mahsulotlarini chiqarish imkoniyati mavjud bo'lgan obyektlarni tashkil etishi imkoniyati mumkin bo'lgan yirik ishlab chiqaruvchi korxonalar va subpudratchilikka ixtisoslashgan kichik korxonalar sifatida qabul qilamiz (yirik qurilish materiallari korxonani mikrofirmalar, kichik korxonalar yoki kooperasion bilan yakka tadbirkor aloqalarini modellashtirish masalasini ham xuddi belgilangandek amalga oshirish mumkin).

Matematik vositalardan foydalangan holda subpudratchilik faoliyati samaradorligini baholash uchun quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$p_s(p_b)$  – subpudratchilik asosida ishlayotgan kichik (yirik) qurilish korxonasi tomonidan ishlab chiqilgan tovar va ko'rsatilgan qurilishning o'rtacha bahosi;

$q_s(q_b)$  – subpudratchilik asosida ishlayotgan avtonom holda kichik (yirik) korxonalar asosida ishlab chiqariladigan va sotiladigan mahsulot hajmi;

$p_s q_s$  – avtonom holda ishlayotgan subpudratchilikka ixtisoslashgan kichik korxonalar daromadi;

$p_b q_b$  – avtonom holda ishlayotgan yirik korxonalar daromadi;

$p_s^s q_s^s$  – subpudratchilik shartnomasi asosida ishlayotgan kichik korxonalar daromadi;

$p_b^s q_b^s$  – subpudratchilik shartnomasi asosida ishlayotgan yirik korxonalar daromadi;

$C_s$  – kichik korxonalar avtonom holda ishlayotgan jami xarajatlari;

$C_s^s$  – yirik korxonalar bilan shartnomasi asosida subpudratchilik hamkorlikda ishlayotgan kichik korxonalar jami xarajatlari;

$C_b$  – yirik korxonalar avtonom holda ishlayotgan jami xarajatlari;

$C_b^s$  – shartnomasi asosida subpudratchilik bilan birga kichik korxonalar ishlayotgan yirik korxonalar jami xarajatlari (marketing tadqiqotlarini o'tkazish, o'qitish bo'yicha va x.k. xarajatlari bilan birga).

Sinergetik samarani baholash maqsadida tahlilni amalga oshirilishi mavjud vaziyatda integrasiya qatnashchilari (hamkorlar) sifatida yirik qurilish korxonasi va subpudratchilikka asoslangan kichik korxonalar qatnashdi va shuning uchun ham I o'yinlar to'plami ikki asosiy elementdan paydo bo'ladi I- $\{1,2\}$ .

Agar quyida keltirilgan shart o'rinli deb topilsa, keltirilgan tengsizlik sharoitida (I,W) o'yin mohiyatli deb hisoblanadi va integrasion hamkorlikni tashkil qilish ikkala ishtirokchi uchun ham samarali bo'ladi:

$$\sum_{i \in I} W(i) < W(I) \quad (1)$$

bu yerda,  $W(i)$  – yakka holda faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonasi yutuqi ( $i=1,2$ ),

$W(I)$  – hamkorlik asosida olinadigan yutuq.

Mazkur holatda yirik va kichik qurilish korxonalarining alohida faoliyat yuritishi natijasida oladigan daromadlari yig'indisi ularning hamkorlikda, ya'ni integrasiya qatnashchisi sifatida erishadigan daromadiga nisbatan kichik bo'ladi deb qaraladi.

Keltirib o'tilgan munosabatni har bir qatnashchining alohida oladigan yutuqini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$W(1) = p_s q_s - C_s \quad (2)$$

$$W(2) = p_b q_b - C_b \quad (3)$$

bu yerda:  $W(1)$  - yakka holda faoliyat ko'rsatayotgan kichik qurilish korxonasi olishi mumkin bo'lgan foyda;  $W(2)$  - yakka holda faoliyat ko'rsatayotgan yirik qurilish korxonasi tomonidan foyda olishi mumkin bo'ladi.

Bunday hollarda kichik korxonalar va yirik korxonalar o'zaro integratsiyalashuvi asosida tashkil etiladigan hamkorligining subpudratchilikka asoslangan yutug'i quyidagicha bo'ladi:

$$W(I) = p^s q^s - C^s \quad (4)$$

Subpudratchilik asosidagi hamkorlikning samaradorligini aniqlash maqsadida keltirib o'tilgan tenglamalardan foydalangan holda quyida keltirilgan tengsizlikka ega bo'lamiz:

$$(p_s q_s - C_s) + (p_b q_b - C_b) < p^s q^s - C^s \quad (5)$$

Qurilish korxonaning subpudratchilik tizimidagi o'zaro hamkorligidan oladigan foydasi korxonalarining alohida, avtonom holatdagi faoliyati natijasida olishi kutilayotgan foydadan sezilarli darajada kattaroq bo'lishi lozim. Ushbu shart bajarilgan taqdirdagina korxonalar o'zaro hamkorlik qilishga harakat qilishadi aks holda hamkorlik samarasiz faoliyat sifatida qaraladi.

Yuqoridagidan kelib chiqqan holda hamkorlikni samarasiz bo'lish holatini quyidagi shart ko'rinishida ifodalash mumkin. Ushbu holatda  $(I, W)$  hamkorlik mohiyatsiz yoki ahamiyatsiz deyiladi:

$$\sum_{i \in I} W(i) \geq W(I) \quad (6),$$

$$\text{ya'ni} \quad (p_s q_s - C_s) + (p_b q_b - C_b) \geq p^s q^s - C^s \quad (7)$$

Rivojlangan yevropa davlatlari tajribalari ko'ra, davlatimiz iqtisodiyot va uning boshqa xududlarida, iqtisodiyotning rivojlanishi natijador bo'lishi bevosita ishtirok qilayotgan qurilish korxonalar va kichik firmalarning xamkorligi asosida amalga oshadi. Bizni fikrimizcha, yirik va kichik qurilish materiallari sanoati korxonalarining yuqoridagidek ko'rsatilgan shaklda subpudratchilik asosidagi aloqalarini integrasion modellashtirish samaradorlik hamkorligini aniqlash borasida ko'pgina imkotiyatlarni yaratib beradi: *birinchidan*, kichik va yirik qurilish korxonalarining nafaqat subpudratchilik tomonidan, balki hohlagan shakldagi integrasion aloqalarining qulayliklarini ko'rsatish va tomonlar uchun bir hil manfaatga ega ekanligini asoslashga; *ikkinchidan*, barcha turdagi yirik va kichik qurilish korxonalarini integrasion aloqalari bir biri bilan shartlarini amal qilish asoslashga; *uchinchidan*, yirik va kichik qurilish korxonalarini integrasion aloqalari hamda hamkorlik natijasida vujudga keladigan sinergetik samaradorlikni amalida iqtisodiy qarorlar qabul qilishga; *to'rtinchidan*, mikro va makro darajasida iqtisodiyot soxalari, xududlar kesimida yirik hamda kichik qurilish materiallari sanoati korxonalarini o'rtasida hamkorliklari rivojlanishini amalga oshirish bo'yicha xududiy va mamlakat dasturlarini tayyorlanish.

### Xulosa va takliflar.

Yuqorida aytib o'tilganlarni amalga oshirgan holda, barcha davlat shu sohani rivojlanishi uchun o'z yunalishi va siyosatini tanlashi kerak. Shularni inobatga olib, sanoatning to'g'ri va yuqori sur'atlarda rivojlanishining ustuvor yunalishlari sifatida quyidagi takliflarni keltirish mumkin: eksport diversifikatsiyasini ta'minlovchi va sanoatda tarkibiy o'zgarishlarga olib keluvchi tarmoqning rivojlanishini jadallashtirish; xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda yangi loyihalarni yaratish; ishlab chiqarish mahalliyashtirish borasida, ishlab chiqarish hajmini oshirgan holda qurilish materiallari sanoat korxonalarida asosiy xomashyoni, materiallarni, kerak butlovchi buyumlarni va yangi asbob uskunalarini; yangi ilmiy texnologiyalardan foydalanish orqali tashqi bozorlarda raqobatbatli bo'ladigan jahon talabi mahsulotlarni ishlab yaratishni kengaytirish; yoqilg'i energetikasi hamda kimyo va neft mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining to'liq quvvat bilan faoliyat olib borishlari uchun zarur choralarni ko'rish; yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish; korxonalarining ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlariga axborot tizimlarini samarali joriy etish.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarining asosiy masalalardan biri bu – butun tashkiliy va iqtisodiy faoliyati davri uchun moliyaviy, moddiy va axborot oqimlarining o'zaro bir-biriga bog'liq logistik zanjirlar xarajatlarini tavsiflashdir. Ushbu toifadagi xarajatlar miqdorlarining darajasi va dinamik o'zgarishini baholashda umumiy xarajatlar tarkibida qurilish xarajatlarini hisobga olish va tahlil qilish hamda sohadagi zamonaviy tarkibiy tuzilmalarni hisobga olish kerak. Qurilish materiallari sohasida ishlab chiqarish tizimlardagi moddiy, moliyaviy va axborot oqimlari harakati, asosiy vositalarning eskirish qiymati, ish haqi xarajatlaridan moddiy, moliyaviy va axborot oqimlari harakati jarayonini oqilona boshqarish asosida samarali tizim bo'g'inlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Qurilish materiallari xarajatlarini taqdim etilgan tipologik xususiyatlarga muvofiq guruhlash, ularning mutloq kattaligini va, umuman, kompaniya faoliyatiga ta'sir darajasini, tashish xarajatlarining muhim qismini shakllantirish, rejalashtirish va kamaytirishning rasionalligini baholash, ularning tuzilishini tahlil qilish va yaxshilash imkonini beradi.

Iqtisodiy elementlar tipologiyasi qurilish materiallari xarajatlarini baholash, tuzilmaning tarkibini aniqlash, moliyaviy hisobni tashkil qilish va ularni kamaytirish uchun zahiralarni aniqlash mumkin.

Korxonada moddiy oqimlarning jismoniy harakati xarajatlari qurilish xarajatlarining asosiy guruhi sifatida tasniflanadi va texnik infratuzilmaning hajmiga, oqim jarayonlarida mehnat resurslarini jalb qilishga, transport va xizmat ko'rsatish jarayonlarida materiallar, ayniqsa yoqilg'i va energiyadan foydalanishga muhim ta'sir qo'rsatadi.

Bugungi kunda qurilish materiallarini ishlab chiqarish sohasini rivojlantirishda norasmiy sektorning ulushini pasaytirish hamda ular faoliyatini legallashtirish maqsadida o'ziga xos dasturlarni ishlab chiqish, kichik biznes imtiyoz va preferensiyalarni joriy qilish, yirik va kichik biznes hamkorligini qo'llab quvvatlash, yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish, qurilish tashkilotlarini tenderlarda qatnashish jarayonlarini yanada takomillashtirish qurilish ishlarini va qurilishini amalga oshirishda soha rivojlanishiga xizmat qiladi.

#### ***Adabiyotlar / Jumepamypa/ Reference:***

*Ibragimov I.U. (2019) Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Namangan viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent -, 33 b.*

*Kasimov I.I. (2017) "Arzon zamonaviy qurilish ashyolari" T.: "Cho'lpon" NMIU.*

*Morozova O.A. (2013) Qurilish tashkilotining intellektual salohiyatini qurilish mahsuloti sifatini ta'minlash asosi sifatida baholash Fan: Internet-jurnali. № 5 (18). 138-bet.*

*O'lmasov A., Vaxabov A.B., (2006) Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: "Sharq", 275 bet.*

*Qaror (2019) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 maydagi PQ- 4335 sonli "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.*

*Saidov M.S. (2021) Challenges and solutions of formation of competitive environment in regulation of natural monopolies // International Journal of Advanced Research in IT and Engineering. Vol. 10 | No. 11 | Nov. <https://garph.co.uk/IJARIE/Nov2021/G-6.pdf>*

*Saidov M.S. (2022) WAYS TO ENSURE ENERGY SECURITY IN UZBEKISTAN // Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 21 Feb.*

*<https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/1062/977>*

*Saidov M.S. (2023) Renewable Energy Sources and Ways of their Implementation in the Republic of Uzbekistan // INTERNATIONAL JOURNAL ON ECONOMICS, FINANCE AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT. Vol. 5 No. 1 | January. <https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/3879/3668>*

Saidov M.S., Hasanov A.A. (2023) Institutional Characteristics of the Regulation of Natural Monopoly Fields // International Journal of Business Diplomacy and Economy. Volume 2| No 3| March. <https://inter-publishing.com/index.php/ijbde/article/view/1333/1141>

Souza, F P and Formoso, C T (1993). Levantamento de Estratégias de Produção e Aspectos de Modernização em Empresas de Construção de Edificações. Porto Alegre, 8-9 junho 1993, Anais

Градов А.П. (2005) Национальная экономика – 2-е издание. Уч. пособие, СПб.: Питер, - 240 с. ил. - (Серия «Учебное пособие»).

Жуков В.А. (2005) Методы управления результативностью рынка строительных материалов на уровне региона. Дисс.кан.экон.наук. Волгоград.

Райзберг Б. А. , Туляков А. В. (2016) 12. Стратегическое планирование и управление социально-экономическими объектами/ Б. А. Райзберг, А. В. Туляков/ред. Полиевктова Е. В. - М.: Экономика, - 223 с. - ISBN 978-5-282-03447-9.

Рафаэль И.С. (2010) "Управление ассортиментным предложением предприятия на основе маркетингового подхода" Автореферат кан.экон.наук Оренбург. - 10-с

Солдатенко Л.В., Шаталова Т.И. (2009) курс лекций по дисциплине «Экономика отрасли» учебное пособие Оренбург: ГОУ ОГУ, - 192 с.

Фармон (2021) Ўзбекистон республикаси Президентининг «Худудларнинг sanoat салоҳиятини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 09.06.2021 йилдаги ПФ-6244 –сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/5449564>